

### O‘ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIY ALOQALARIDA ALISHER NAVOIY IJODI

**Ataniyazova Muborak Abdullayevna,**  
*QQDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi*  
*katta o‘qituvchisi*  
[ataniyazova@mail.ru](mailto:ataniyazova@mail.ru)  
+998973557094

Alisher Navoiy XV asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida yangi sahifa ochgan, “Xitodin to Xuroson”gacha bo‘lgan “turk ulusi” orasida mashhur xazina, Sharq turkiy she‘riyatining daho shoiridir. Ulug‘ shoir ijodining shuhrati, ayniqsa, turkiy xalqlar orasida keng yoyildi. Bu mashhurlik adabiy jarayonning ajralmas qismlaridan biri adabiy aloqalarda o‘z aksini ko‘satdi.

Mumtoz turkiy she‘riyatning shakl va janr taraqqiyotini, mavzu va obraz takomilini, o‘zaro adabiy ta‘sir natijalarini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilolmaymiz. Albatta, adabiy aloqalar natijalari faqat shakl va mavzudagina aks etib qolmasdan, o‘quvchining ma‘naviy tafakkur dunyosiga ham o‘z ulushini qo‘shadi. Ushbu kichik ishimizda Alisher Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiy jarayonida tutgan o‘rnini qalamga olmoqchimiz.

Navoiy asarlari qoraqalpoq xalqi orasida dastlab qo‘lyozma shaklida tarqalib, maktab-madrasalarda o‘qitilgan. Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, O‘tesh shoir, Umar, Ayapbergan Musayevlardan tortib Abbaz Dabilov, Sodiq Nurimbetov, Ibrayim Yusupovgacha Navoiy ijod chashmasidan bahramand bo‘lishgan, donishmand shoir ijodidan ta‘sir lanib, unga ergashib asarlar yaratganlar, Alisher Navoiy asarlaridan tarjimalar qilishgan.

Qoraqalpoq mumtoz adabiyotiga g‘azal, muxammas kabi janrlarning, aruz vaznining kirib kelishi XIX asr qoraqalpoq adabiyotining yirik siymolaridan biri Ajiniyoz Qo‘siyoy o‘g‘li nomi bilan bog‘liq.<sup>1</sup> Misol tariqida “Qiz O‘raz”, “Uyg‘on”, “Bormikan”, “Ko‘zlarim”, “Chiqdi jon”, “Beri kel”, “Kerak”, “Ay alif”<sup>2</sup> kabi she‘rlarini keltirish mumkin. Ajiniyoz she‘riyatining o‘ziga xosligi shundaki, shoir Navoiy asarlarida mavjud ayrim mavzu va g‘oyalarni o‘z davri talablariga moslab, o‘ziga xos poetik shakllarda ifoda etadi. Adabiy ta‘sir jarayonida Xeva madrasalarida olingan ta‘lim, Firdavsiy, Nizomiy, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli ijod namunalari bilan yaqindan tanishuv, Sharq mumtoz she‘riyati sirlarini yaxshi o‘zlashtirish ijod imkoniyat chegaralarini yanada kengaytirgan.

<sup>1</sup> Karimboy Quramboyev. Adabiy jarayon. Ijod mas‘uliyati. Adabiy aloqalar. “Cho‘lpon” – T.: 2009, 94-b.

<sup>2</sup> Ajiniyoz. Tanlamali shig‘armalari. “Qaraqalpaqstan” – No‘kis. 1988. – 124 b.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida Navoiy asarlarini o‘rganish 1930-yillarda boshlangan. Bu yillarda “Qizil Qoraqalpaqstan” gazetasida Asan Begimovning “Ulli ozbek xalqinin ulli shayiri”, Najim Dawqarayevning “Ulli danishpan shayir” kabi maqolalari e‘lon qilindi. Marzag‘ali Daribayev hamda Artiq Shomuratovlar esa “Farhod va Shirin” dostonini tarjima qilishdi. Shu davrlardan shoir she‘rlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilina boshlagan. 1937–1940-yillarda M.Dariboyev, A.Shomuratov, J.Aymirzayev, N.Japaqovlar uning bir qancha g‘azallarini, “Farhod va Shirin” dostonidan parchalarni o‘g‘irgan bo‘lsalar, 1939-yilda shoirning “Chor devon”idan turkum g‘azallar, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonining ba‘zi boblari kitob shaklida chop etiladi. 1968-yilda “Layli va Majnun” dostoni qoraqalpoq sahnasida namoyish qilingan. Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi Qoraqalpog‘istonda ham keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan shoir g‘azallari, “Hayrat ul-abror” dostonidan namunalar B.Qaypnazarov tarjimasida nashr etildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda shoir Ibrayim Yusupov qoraqalpoq she‘riyatida Navoiy janriy, mavzuviy an‘analarining davom etishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Ushbu an‘analar natijasida qoraqalpoq shoirlari Marat Qoraboev, Abulqosim O‘tapbergenovlar o‘z g‘azallar to‘plamlarini nashr qildirishdi.

Shoir Daulen Aytmuratov Navoiy g‘azallarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan bo‘lsa, Maden Matnazarov “Xamsa”dagi “Sab‘ai sayyor” dostonini “Jeti iqlim” nomi bilan tarjima qildi va bu tarjimalar nashr qilindi.

Shoir Abilqosim O‘tapbergenov Navoiy g‘azallariga bir necha muxammaslar bog‘ladi. D.Aytmuratov Navoiyning 130 ga yaqin g‘azal va hikmatlaridan namunalar, shuningdek, “Hayrat ul-abror”, “Layli va Majnun” dostonlaridan boblar tarjima qilib, alohida to‘plam holida nashr ettirdi (1991).

Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan “Ulli Nawayi”, “Siyliq”, 1968-yili shoir tavalludining 525 yilligida “Alisher Nawayi” kitoblari chop qilindi, shuningdek N.M.Mallayevning “Genial shoir va mutafakkir” kitobi qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodi an‘analarining qoraqalpoq adabiyotiga ta‘siri masalasini yoritishda filologiya fanlari doktori, professor Kamal Mambetovning mehnatlarini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz zarur. Balki adabiyotshunos olim Kamal Mambetovning 1968-yili himoya qilgan “Qoraqalpaq adebiyatida Shig‘is klassiklari dasturleri” (Qoraqalpog‘istonda tarqalgan fors va turkiy qo‘lyozmalar asosida) nomzodlik dissertatsiyasi adabiy aloqalar va ta‘sirlar masalasi yoritilgan salmoqli ilmiy ish bo‘ldi. Olimning “Nawayi ham qoraqalpaq adebiyati”<sup>3</sup> kitobi mutafakkir va donishmand shoir Alisher Navoiy asarlarining qoraqalpoq

<sup>3</sup> Kamal Mambetov. Nawayi ham qoraqalpaq adebiyati. “Qoraqalpaqstan” – No‘kis. 1991. – 60 b.

shoirlari ijodiga ta'siri, qoraqalpoq adabiyotida tutgan o'rni, adabiy an'analar haqidagi dastlabki qadamdir.

Kitobda XIX asrda yashab ijod qilgan qoraqalpoq klassik shoiri Berdaq Navoiyni ustoz deb tanishdagi asosiy sabablar, Navoiy ijodining Ajiniyoz ijodiga ta'siri, qoraqalpoq mumtoz adabiyotida yangi janr, ya'ni g'azal, muxammas, ruboiylarning paydo bo'lishi va taraqqiyotida ustoz Navoiyning tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Shuningdek, adabiyotshunos olim Qurbanbay Jarimbetov "XIX asir qoraqalpoq lirikasining janrliq qasiyetleri ham rawajlaniv tariyxi"<sup>4</sup> monografiyasida Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh, Gulmurat, Saribay va boshqa mumtoz qoraqalpoq she'riyati siymolari ijodida lirik janrlar taraqqiyotiga xalq og'zaki ijodi, turkiy va forsiy tillardagi adabiy an'analarining ta'siri masalasi batafsil ilmiy-nazariy yoritib berilgan. Qoraqalpoq mumtoz she'riyatida g'azal, muxammas janrlari, aruz vazni imkoniyatlaridan foydalanishda Alesher Navoiy, Atoyi, Mashrab kabi o'zbek mumtoz shoirlar ijod an'analarining ta'siri haqida xulosalar qilingan. Shuningdek, Q.Jarimbetovning "Ashiq Ziwar" risolasida Ajiniyoz shoirning ishqiy mavzuda yozgan lirik asarlari janriy ko'lam, obraz va timsollarda tasavvuf she'riyatiga xos bo'lgan adabiy xususiyatlar, shoir she'rlaridagi Alisher Navoiy an'analari ta'siri borasida yangicha qarashlar o'z aksini topgan. Kitobda Ajiniyaz lirikasining janriy xususiyatlarini, timsol va ramz yaratishda Navoiy ijodining ta'siri masalasi tahlil qilingan.

Adabiy aloqalar doirasida sermahsul mehnat qilgan adabiyotshunos olimlardan biri Karimboy Quramboyev faoliyatini ham aytib o'tishimiz zarur. Olim uch xalq – o'zbek, turkman va qoraqalpoq adabiyotini o'rganish orqali qator ilmiy ishlarni amalga oshirgan. "Mushtarak mavzular, o'ziga xos talqinlar", "O'zbek-turkman adabiy aloqalari", "Adabiy o'xshashlik, poetik rang-baranglik", "Alisher Navoiy turkmanlar haqida" kabi maqolalarida uch xalq adabiyotining taraqqiyot yo'llarini, o'zaro aloqasini tadqiq qiladi. "Ko'ngil bermish so'zimga" (1992) nomli monografiyasining bir bobi ham Navoiy va qoraqalpoq adabiyoti masalalariga bag'ishlangan va Sharq adabiyoti, jumladan, Alisher Navoiy ijodi qoraqalpoq adabiyoti bilan qiyosiy o'rganilgan.

Shunday olimlardan biri Qabil Maxsetov ham Alisher Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiyotiga ta'siri<sup>5</sup> masalasini alohida tadqiq qilganligini ko'rish mumkin. Bu yo'nalishda Ismoil Sag'itov, Aydar Murtazayevlarning ilmiy maqolalari chop qilindi.

<sup>4</sup> Q.Jarimbetov. XIX asir qoraqalpoq lirikasining janrliq qasiyetleri ham rawajlaniv tariyxi. "Bilim". – No'kis. 2004. – 188 b.

<sup>5</sup> Q.Maqqsetov. Qoraqalpoq adebiyatinin tuwisqan xaliqlar adebiyatlari menen baylanisi. "Bilim". – No'kis. 1991.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qoraqalpoq adabiyotshunosligida navoiyshunoslik alohida yo'nalishga aylanib ulgurdi. J.Aymirzayev, A.Begimov, N.Davqarayev, M.Daribayev, N.Japaqov, I.Sag'itov, A.Murtazayev, Q.Maqsatov, K.Mambetov, H.Hamidov, Q.Jarimbetov, K.Quramboyev kabi olim va adiblarning shoir hayoti va ijodi, asarlarining tarjimalari va adabiy ta'sir masalalariga bag'ishlangan ko'plab maqola va risolalari fikrimizning yorqin dalilidir.

Demak, o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalar va ta'sirlar doirasida 1)Navoiy asarlarining qoraqalpoq tiliga tarjimasini; 2)Navoiy ijod an'analari qoraqalpoq ijodkorlari asarlarida davom etishi masalasi; 3)Navoiy ijodining qoraqalpoq olimlari tomonidan o'rganilish masalasi kabi yo'nalishlarning shakllanib ulgurganligining guvohi bo'ldik.

Ma'lum bo'ladiki, Navoiy va turkiy xalqlar adabiyoti alohida tadqiqot mavzui bo'lib, shoir adabiy va ilmiy merosining turkiy xalqlar orasiga tarqalishi, asarlari qo'lyozmalarining ko'chirilishi, o'zidan keyingi ijodkorlar ijodiga ta'siri va izdoshlari, asarlarining nashrlari va tarjimalarini qiyosiy jihatdan o'rganish nafaqat o'zbek, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotshunosligining muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimboy Quramboyev. Adabiy jarayon. Ijod mas'uliyati. Adabiy aloqalar. "Cho'lpon" – T.: 2009.
2. Ajiniyaz. Tan'lama shig'armalari. "Qaraqalpaqstan" – No'kis. 1988.
3. Kamal Mambetov. Nawayi ham qaraqalpaq adabiyati. "Qaraqalpaqstan" – No'kis. 1991.
4. Q.Jarimbetov. XIX asir qaraqalpaq lirikasining janrlig qasidatleri ham rawajlaniv tariyxi. "Bilim". – No'kis. 2004.
5. Q.Maqsatov. Qaraqalpaq adabiyatinin tuwisqan xaliqlar adabiyatlari menen baylanisi. "Bilim". – No'kis. 1991.